

**ARTICLE INFO**Received: 13<sup>th</sup> December 2022Accepted: 21<sup>th</sup> December 2022Online: 22<sup>th</sup> December 2022**KEY WORDS**

*Qadamjolar, madaniy turizm, xitoy obidalari, xitoy memorchiligi, sharq madaniyatining o'ziga hosligi.*

**XITOYNING DIQQATGA SAZOVOR JOYLARIDA TURIZMNING AHAMIYATI****Mukhammadjonov Jaxongir**

TDIU Xalqaro turizm fakulteti talabasi

Email: mukhammadjonov21@mail.ru

**Khikmatov Dilshodjon**

TDIU Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7472779>**ABSTRACT**

*Xitoyning diqqatga sazovor joylarida turizmning kelib chiqishi tog'risida so'z yuritar ekanmiz avvalo turizm va uning turlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu maqolada Xitoynig eng mashhur obidalari ularning oziga xos ajralmas tarixi, turli manbalar asosida tahlil qilindi va oziga xosligi o'rganildi.*

**Kirish:** Turizm so'zi (fransuzcha: our — sayr, sayohat), sayyoohlilik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri singari tarjimalarga ega. Bugungi kunga kelib turizm soxasi dunyo iqtisodiyotni jadal ravishda rivojlantirayotgan soxalaridan biridir. Xitoy 2022-yilda sayohat va turizmning YalMga qo'shgan hissasi bo'yicha dunyoda ikkinchi (814,1 milliard dollar), sayohat va turizmning bandlikka qo'shgan hissasi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egalladi. Xitoydagи turistik resurslarni uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin: eko-turizm chiroyli joylarga sayohat qilish, tarixiy hamda madaniy joylar va xalq urf-odatlari saqlanib qolgan joylarga tashrif buyirish. Xitoya 55 ta Jahon merosi obyektlari mavjud bo'lib, Xitoy bu bo'yicha 58 ta obyekti bo'lgan Italiyadan keyin dunyoda ikkinchi o'rinda turad.<sup>1</sup>

**Xitoy turizmning asosiy turlari:**

- 1.Sarguzasht turizm
- 2.Madaniy turizm
- 3.Agriturizm
- 4.Tibbiy turizm
- 5.Ekoturizm
- 6.Sport turizm
- 7.Diniy turizm<sup>2</sup>

Sitatistik malumotlarga kora 2022 yilning uchinchi choragida Xitoyda taxminan 639 million mahalliy sayyoohlilik sayohatlari amalga oshirildi. Xitoyda ichki turizm 2020 yilning birinchi choragida koronavirus pandemiyasi boshlangandan keyin tezda tiklandi<sup>3</sup>.

Xitoyda turizm qanday boshlangan? Xitoyda zamonaviy turizm 1950-yillarning boshlarida paydo bo'lgan. 1954 yilda Xitoy xalqaro sayohat xizmati tashkil etildi, uning 14 ta filiali Guanchjou, Shanxay, Pekin va boshqa yirik shaharlarda joylashgan. 1964

<sup>2</sup> <https://www.advantour.com/china/tourism.htm>

<sup>3</sup> <https://www.statista.com/statistics/1277020/quarterly-number-of-domestic-trips-in-china/>

<sup>1</sup> <https://weforum.org>



yilda Xitoy davlat turizm boshqarmasi rasmiy ravishda tashkillantirildi.

Xitoy kattaligi boyicha Rossiya va Kanadadan keyingi uchinchi o'rinda bo'lip, turizm resurslariga boy. Uning go'zal joylari va tarixiy joylari, ajoyib manzaralari va rang-barang va xilma-xil milliy urfodatlari mayjud. Hozirgi vaqtida Xitoyda ikkita asosiy sayyoqlik marshruti mavjud: biri Pekin, Sian, Shaxay, Suzhou va Xanchjou kabi mashhur siyosiy va madaniy shaharlarni o'z ichiga olgan "S" shaklidagi an'anaviy sayohat yo'nalishi; ikkinchisi - Liaoning va Shandong yarim orollari, Yangtze va Pearl daryolari deltalari kabi qirg'oq bo'yqi ochiq hududlarni o'z ichiga olgan yarim oy shaklidagi sayohat marshruti.

Sayyoqlar "S" shaklidagi ekskursiya marshruti bo'ylab Buyuk Badaling devoriga ko'tarilib, Pekindagi Imperator saroyi va Osmon ibodatxonasiga tashrif buyurishlari va birinchi Tsin imperatori maqbarasidan, . Sian shahridagi Stel o'rmonidan qazilgan terakota askarlari va otlarini ko'rishlari mumkin.

Xitoyning diqqatga sazovar qadamjolaridan eng mashxuri bu bilamizkiy Buyuk xitoy devori xitoy tilida "Vanli changcheng" deb yuritiladi. Mazkur devor turkiy manbalarda Saddi Chiniy — Shim deb yuritiladi. Xitoydag'i qal'a devori sifatida foydalanilgan va kolami kengligi va insonlarning qo'l bilan qurilgan tarixiy qadamjolar sifatida dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Qadimgi Xitoy me'morchiliginining ulkan yodgorligi sifatida butun dunyoga xitoyning asosiy tashrif qog'ozni rolini o'ynaydi. Qal'a devori sifatida dastlabki qismi miloddan avvalgi 4—3-asrlarda (tosh va g'ishtdan ishlanib, ichini tuproq bilan to'ldirib, shibbalab) qurilgan. Miloddan avvalgi 2—1-asrlarda G'arbga

tomon 500 km ga uzaytirilgan. Keyinchalik uni qurish va mustahkamlash ishlari (eng muhimi 14—15-asrlar) davom etgan. 1953-yilda Szyuyyunguan qal'asi (Pekin) yaqinidagi qismi ta'mirlangan. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida B.Buyuk Xitoy devori "Saddi Chin" devori nomi bilan tilga olingan.<sup>4</sup>

#### Xi'anning Terrakotta armiyasi

Agar siz Xitoyning qadimgi tarixi haqida ko'proq bilmoqchi bo'lsangiz, masalan, Zhou (miloddan avvalgi 1045—221), Xan (miloddan avvalgi 206 — 220) yoki Qin (miloddan avvalgi 221—206) sulolalari haqida keng ko'lamli ma'lumot olmoqchi bolsangiz, u holda Xi'an eng maql tarixiy qadamjo xisoplanadi. Xi'an 13 sulolaning poytaxti shaxri sifatida tarixdan joy olgan, Xitoyning to'rt buyuk qadimiy poytaxtlaridan eng qadimiysidir. Ba'zi manbaalarda mazkur shaxar Xitoy tsivilizatsiyasining tug'ilgan joyi deb yuritiladi. Xitoyning birinchi imperatori tarixi haqida Terrakotta armiyasi koplal yodigorlik va turizmbop qadamjolarni o'z ichiga oladi.<sup>5</sup> Terrakota tuproqdan topilgan 7000 dona askar haykallaridir. U XX asrda topilgan eng sirli topilmalardan biridir. Chunki undagi askarlar yuzi formasi xattoki qurollari ham bri biridan fariq qladi. Bu tuproq askarlar Xitoyning birinchi imperatori bolgan Tsin Shi Huang qabristonidan topilgan. Rivoyatlarga qaraganda 56<sup>2</sup> km maydonni egallagan terrakota xaykallarining sababi imperator vafotidan song ham ozini ximoya qiluvchi askarlar bolish istagidir deb yuritiladi.<sup>6</sup>

<sup>4</sup> UzME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

<sup>5</sup>

<https://www.chinahighlights.com/travelguide/tourism.htm>

<sup>6</sup> <https://www.youtube.com/watch?v=pBMCTKLT1Pk>



Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joyizkiy bizning hududimizda aynan O'zbekiston tarixini dunyoda namoyish etadigan qadamjolarimiz, tarixiy obidalarimiz ularga turizmni jalg qilish borasida qanday ishlar olib borilmoqda degan savol bugungi kunda ochiqligicha qolmoqda. Xitoyda turizmning eng klassik korinishi bolgan tarixiy joylarga tashrif buyirish dunyoda yetakchi o'rin egallar ekan biz ham tarixiy turizmni rivojlantirishimiz zarur degan hulosaga keldik. Chunkiy geografik jihatdan O'zbekistonda kongil ochar joylarga tashrif buyirish borasidagi turizmni rivojlantirish

qo'l kelmaydi deb hisoplaymiz. Chunkiy O'zbekiston dengizdan uzoq va suvli hududlar juda kam. Insonlar ko'ngil ochar joylar uchunasosan suvli hudud Tayland, Malayziya va shu kabi dengiz bilan tutashgan hududlarga borib xordiq olishni yoqtirishadi. Zamonaviy joylarga boorish uchun esa insonlar tomonidan ko'pincha Xitoy, Singapur, Yaponiya, Koreya, Qo'shma shtatlar va ko'plab boshqa yevropa davlatlariga tashrif buyirishadi. Shunday ekan O'zbekiston o'z qo'lida bor resurslardan unumli foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi degan xulosaga kelindi.